

**СЎЗ САНЪАТИ
ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ
4 ЖИЛД, 1 СОН**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ
ИСКУССТВО СЛОВА
ТОМ 4, НОМЕР 1**

**INTERNATIONAL JOURNAL
OF WORD ART
VOLUME 4, ISSUE 1**



Бош муҳаррир:

Холбеков Муҳаммадҷон

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Тўхтасинов Илҳом

ф.ф.д., доцент (Ўзбекистон)

Тахрир хайъати:

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматқул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахыммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Юсупов Ойбек

масъул котиб, доцент (Ўзбекистон)

Главный редактор:

Холбеков Муҳаммадҷон

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:

Тухтасинов Илҳом

к.ф.н., доцент (Ўзбекистон)

Редакционная коллегия:

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар оғли

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматқул

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахыммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Джеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабоев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дустмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Юсупов Ойбек

отв. секретарь, доцент (Ўзбекистон)

Editor in Chief:

Kholbekov Muhammadjan

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

Tuhtasinov Ilhom

Ph.D. Ass. Prof. (Uzbekistan)

Editorial Board:

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli

Doc. of philol. sci., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. sci., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. sci., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. sci., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. sci. (Georgia)

Yusupov Oybek

Ass. prof. (Uzbekistan) - Senior Secretary

МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT

Адабиётшунослик

- 1. Rahmonqulova Zarnigor**
DISTOPIK EKZISTENSIALIZMNI INGLIZ YOZUVCHISI UILYAM
GOLDINGNING “LORD OF THE FLIES” ROMANIDA AKS ETISHI.....6
 - 2. Усманова Севара**
ЧЎЛПОН ВА С.РИЧАРДСОН РОМАНЛАРИДА БАДИИЯТ МУАММОЛАРИ.....14
 - 3. Yusupova Dildora**
SHOIR SO‘Z AYTGANI KELAR DUNYOGA...(Shoira Halima
Xudoyberdiyevaning hayot va ijod yo‘liga chizgilar).....21
 - 4. Қўчқорова Садоқат**
ФОЛЬКЛОРДА ЭРТАКНИНГ ЖАНР СИФАТИДАГИ ХУСУСИЯТИ.....28
 - 5. Мажитова Сабоҳат, Ярашов Шариф**
АМИР ХУСРАВ ДЕҲЛАВИЙ ВА АБДУРАҲМОН ЖОМИЙ ҒАЗАЛЛАРИДА
«ДИЛ» (ЮРАК, ҚАЛБ) ТИМСОЛИНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК МАЙДОНИ.....35
 - 6. Джалилова Зарнигор**
ИНГЛИЗ ШЕЪРИЯТИДА ИНСОН СИФАТЛАРИНИНГ ГУЛЛАР
ТИМСОЛИДА ИФОДАЛАНИШИ.....42
- ## Лингводидактика
- 7. Khamzaev Sobir, Gilyazetdinov Eldar**
THE PRINCIPLES OF SPEAKING SKILLS’ FORMATION AMONG
STUDENTS OF LINGUISTIC UNIVERSITIES.....48
- ## Тилшунослик
- 8. Boygucheva Lola**
THE ROLE OF DISCOURSE ANALYSIS IN MODERN LINGUISTIC THEORY.....54
 - 9. Кобилова Азиза**
ШИФОБАХШ ЎСИМЛИКЛАР ЎРНИДА ИШЛАТИЛАДИГАН
ПЕРИФРАЗЛАР ТАҲЛИЛИ (ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИ МИСОЛИДА).....59
 - 10. Mamanazarova Gulhayo, Paluanova Halifa**
ISSUES ON OIL AND GAS TERMINOLOGY IN LINGUISTICS.....65
 - 11. Melikova Elnora, Abdullayeva Nargiza**
PRIMARY AND SECONDARY PREDICATION.....71
 - 12. Saidova Farida**
O‘ZBEK TILI LEKSIK SINONIMLARINING LEKSIKOGRAFIK TALQINI.....77
 - 13. Turniyazov Behzod**
FAKTIVLIK ASOSIDAGI KAUZATSIYA.....83

14. Гафуров Бахтиёр АНАЛИЗ ЛИНГВОСТАТИСТИЧЕСКОЙ ХАРАКТЕРИСТИКИ АКЦЕНТНЫХ ФОНОВАРИАНТОВ ИМЕН СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ РУССКОГО ЯЗЫКА.....	91
15. Ибаев Анвар КОМПАРАТИВ СИНТАКТИК ҚУРИЛМАЛАР ТИЛШУНОСЛИКНИНГ ЎРГАНИЛИШ ОБЪЕКТИ СИФАТИДА.....	97
16. Исмаилов Тургун ПРЕЗИДЕНТ ДИСКУРСИДА HOMELAND КОНЦЕПТИНИНГ МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР ОРҚАЛИ ТАСАВВУР ЭТИЛИШИ (FREEDOM, LIBERTY ҚАДРИЯТИ МИСОЛИДА).....	103
17. Камолитдинова Вазира ОКСЮМОРОН ВА УНИНГ УСЛУБИЙ - СЕМАНТИК ХУСУСИЯТЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ.....	111
18. Нигматова Лолахон ЎЗБЕК ТИЛИ МАХСУС КОРПУСЛАРИ – ТИЛ ВА МАДАНИЯТ МУШТАРАКЛИГИНИ ЎРГАНИШ ВОСИТАСИ.....	116
19. Сабирова Ёъзоа ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ИЗОҲЛИ ЛУҒАТЛАРИДА ЎЗЛАШМА ЮРИДИК ТЕРМИНЛАР ТАЛҚИНИ.....	121
20. Сулаймонова Нигора ЗАМАХШАРИЙ ГЎЗАЛ НУТҚ ВА САБР ОДОБИ ҲАҚИДА.....	130
21. Тўева Зулфия, Юлдашева Дилором БАЁН ВА УНИНГ ТУРЛАРИ ҲАҚИДА.....	137
22. Xolova Muyassar BOYSUN SHEVASI ONLAYN MA'LUMOTLAR BAZASI (QIDIRISH VA SARALASH IMKONIYATLARI ASOSIDA).....	146
23. Abdullayeva Oqila Holmo'minovna O'ZBEK TILI KORPUSINI YARATISH BOSQICHLARI VA MUAMMOLI JHATLARI....	153
24. Abdunazarova Zarina Islomovna THE FORMATION OF SPEECH COMPETENCE.....	146
25. Nilufar Abduraxmonova O'ZBEK TILI KORPUSINI YARATISHDA LINGVISTIK ANNOTATSIYALASH TAMOIYILLARI.....	164
26. Shamuradova Naima O'ZBEK VA INGLIZ XALQ MAQOLLARINING QIYOSIY O'RGANILISHI HAQIDA (ASOSIY QISMLARINI QO'LLASH).....	171
27. Яхёева Гулнора Бахтиёровна ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ.....	175


28. Irgasheva Umida INGLIZ TILI DARSLARIDA TALABALAR KASBIY NUTQ KOMPETENTSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA STEAM TEXNOLOGIYALAR AHAMIYATI.....	179
29. Jumaniyozova Nuriya Axmedovna YURIDIK DISKURS LINGVISTIK TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA.....	184
30. Khayitova Feruza Abdikhalikovna THE PRACTICAL ANALYSIS OF TOPONYMS IN GREAT BRITAIN BASED ON THE STORY OF A. CONAN DOYLE "THE HOUND OF THE BASKERVILLES".....	188
31. Z. Masodiqova, Sh. Xatamqulova O'ZBEK VA NEMIS MAQOLLARINI QIYOSHLASH.....	193
32. Teshaboyev Dilmurod Rahmadjonovich, Axmadjonova Mohinur Bahodirovna SON SO'Z TURKUMINING BOSHLANG'ICH SINF DARSLIKLARIDA IFODALANGAN SHAKLLARINI AKT ORQALI TUSHUNTIRISH.....	193
33. Maxmurova Mavjuda Halimovna METAFORALAR NUTQ SHAKLI SIFATIDA.....	204
34. Nazarov Rustam Irkinovich THE IMPORTANCE OF PAIR WORK AND GROUP WORK ACTIVITIES IN TEACHING ENGLISH IN TECHNICAL UNIVERSITIES.....	210
35. Saidbekova Raykhona Rustambekovna, Ruzmatova Dilnoza Ramatjonova FAMILY PERSPECTIVES IN THE NOVEL "AND THE MOUNTAIN ENCHOED" BY KHALED HUSSEINI.....	217
36. Алижон Раҳматович Қосимов, Хумора Муҳаммадиса қизи Иминова ТИЛНИНГ БИОПСИХОСОЦИАЛ ОНТОЛОГИК МАҚОМИ МУАММОЛАРИ.....	222

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Saidova Farida

o'qituvchi, Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,
Toshkent, O'zbekiston
E-mail: saidovafarida95@gmail.com

O'ZBEK TILI LEKSIK SINONIMLARINING LEKSIKOGRAFIK TALQINI

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2021-1-12>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sinonimlarning o'rganilishi, leksik sinonimlarning lug'atlarda aks ettirilishi haqida fikr yuritilgan. So'zning ma'nosi, uni qanday qo'llash va shunga tegishli ma'lumotlar izohli lug'atda namoyon bo'ladi. Izohli lug'atlarning til rivojidadagi o'rni undagi so'z ma'nolarining to'g'ri ochib berilgani bilan beqiyosdir. Leksik sinonimlarning lug'atlarda berilishi bilan bog'liq muammolar hali ham kuzatilib turibdi. "O'zbek tili izohli lug'ati"da sinonimlarning berilishi, leksik dubletlar, sinonimik qatordagi so'zlarning izohli lug'atda to'liq aks etmayotganligi ularning izohi bilan bog'liq muammolar misollar orqali ko'rsatib berilgan. Sinonimiya hodisasi o'rganilgan tadqiqotlar, lug'atlar maqola uchun asos bo'ldi. Maqolada leksik sinonimlarning leksikografik talqini muammolari ochib berishga harakat qilindi va "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" bilan bog'liq ba'zi mulohazalar berildi.

Kalit so'zlar: sinonim, lug'at, leksik dublet, leksik sinonimiya, izohli lug'at, muqobillik, sema.

Саидова Фарид

Учитель, Ташкентский государственный университет
узбекского языка и литературы имени Алишера Навои,
Ташкент, Узбекистан
E-mail: saidovafarida95@gmail.com

ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЛЕКСИЧЕСКИХ СИНОНИМОВ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются вопросы изучения синонимов и отражения лексических синонимов в словарях. Информацию о значении слова, способах его использования и сопутствующую информацию можно найти в глоссарии. Роль аннотированных словарей в развитии языка несопоставима с правильной интерпретацией их значений. По-прежнему существуют проблемы с лексическими синонимами в словарях. В Толковом словаре узбекского языка приводятся примеры синонимов, лексических дублетов и того факта, что слова из синонимической серии не полностью отражены в толковом словаре. Основой статьи стали исследования феномена синонимии, словари. В статье предпринята попытка

разъяснить проблемы лексикографической интерпретации лексических синонимов и были сделаны некоторые комментарии к Глоссарию узбекских синонимов.

Ключевые слова: синоним, словарь, лексический дублет, лексическая синонимия, аннотированный словарь, альтернатива, сема.

Saidova Farida

Teacher, Tashkent State University of Uzbek
Language and Literature named after Alisher Navoi,
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: saidovafarida95@gmail.com

LEXICOGRAPHIC INTERPRETATION OF UZBEK LEXIC SYNONYMS

RESUME

This article discusses the study of synonyms and the reflection of lexical synonyms in dictionaries. Information about the meaning of the word, how to use it and related information can be found in the glossary. The role of annotated dictionaries in the development of language is incomparable with the correct interpretation of their meanings. There are still problems with lexical synonyms in dictionaries. The Uzbek Explanatory Dictionary provides examples of synonyms, lexical doublets, and the fact that words in a synonymous series are not fully reflected in the explanatory dictionary. Research on the phenomenon of synonymy, dictionaries became the basis for the article. The article tried to explain the problems of lexicographic interpretation of lexical synonyms and some comments were made on the Glossary of Uzbek Synonyms.

Keywords: synonym, dictionary, lexical doublet, lexical synonymy, annotated dictionary, alternative, sema.

KIRISH. Tildagi o‘zgarish (so‘zning eskirishi / yangi so‘z paydo bo‘lishi) davr talabi va boshqa omillar bilan bog‘liq. Tilshunoslik taraqqiyoti ham shunday. Dunyo tilshunosligida bo‘layotgan o‘zgarishning ko‘pida inson va til munosabati aks etadi. Tilning insonga, insonning tilga ta‘sirini tilshunoslikdagi chayir qoidalarni o‘zgartirib yubordi. U inson bilan chuqurroq bog‘landi (albatta, biz nazarda tutgan inson tilshunos emas). Hozirgi kunda aksar tadqiqot amaliy, ya‘ni tilning inson uchun ahamiyati va samaradorligi fonida olib borilmoqda. Xususan, o‘zbek tilshunosligida ham “nazariyadan amaliyotga”, “lisoniy imkoniyat – shaxs – nutq” tamoyili asosida ish ko‘radigan amaliy filologiya oyoqqa turmoqda [3, 4, 5, 6, 8].

Tilning rivojlanishida, ayniqsa, leksik sathning ahamiyati juda katta. So‘z har doim tilshunoslik uchun muhim obyekt hisoblangan. Bu o‘zgarish hodisadir. Chunki biz muloqotga kirishishimiz uchun, albatta, gaplardan foydalanamiz. Gaplar esa so‘zlashuv nutqida juda qisqa, hattoki bitta so‘zdan, bitta ishoradan iborat bo‘lishi mumkin. So‘zning ma‘nosi, uni qanday qo‘llash va shunga tegishli ma‘lumotlar izohli lug‘atda namoyon bo‘ladi. Izohli lug‘atning til rivojidadagi o‘rni undagi so‘z ma‘nolarining to‘g‘ri ochib berilgani bilan beqiyosdir. O‘zbek tili Izohli lug‘atining 5 jildli yangi nashri o‘zbek tilining so‘z boyligi ortib borayotganidan dalolatdir.

Har bir tilning so‘z boyligini ifoda etuvchi izohli lug‘at mavjud. Izohli lug‘at murakkab, ammo foydalanuvchi uchun sodda tuzilgan bo‘lishi kerak. Foydalanuvchi izohli lug‘atdan o‘zi izlagan so‘zni aynan topishi, uning ma‘nosini to‘liq tushunishi lozim. Yangi ko‘p jildli lug‘atni tuzishda 1981-yilda nashr etilgan ikki jildli izohli lug‘at materiallaridan foydalanildi. Lekin u ikki jildli lug‘atning to‘ldirilgan yoki qandaydir o‘zgartirishlar bilan qayta ishlangan nashri emas, balki leksikografiyaning yangi yutuqlarini hisobga olgan holda yaratilgan mutlaqo yangi lug‘atdir. Shubhasiz, so‘zlarning miqdori va sifati yangi ko‘p jildli lug‘atda mukammal shaklga keltirilgan. So‘zning ma‘nosini izlash uchun lug‘at maqolasida yo‘riqnoma shakllantirilgan. Yo‘riqnomada ushbu lug‘atdan qanday foydalanish lozimligini ko‘rsatib berilgan. Foydalanuvchi, albatta, lug‘atdan foydalanish uchun yo‘riqnoma bilan tanish bo‘lishi kerak. Lug‘atdagi qisqartmalar, raqamlar nimani ifodalashi juda muhim hisoblanadi.

O'zga tilni o'rganish jarayonida nafaqat tarjima lug'atidan, balki izohli lug'atdan ham foydalanishga tog'ri keladi. Chunki bitta so'z bir necha o'rinda turli xil ma'noni ifodalishi mumkin, yoki qaysidir so'z o'rnida qo'llanuvchi ommabop(neytral) so'z bo'lishi mumkin. Nutqiy vaziyat so'zlovchida so'zni to'g'ri tanlashni talab qiladi. So'zni qay holatda, qay o'rinda va qanchalik to'g'ri qo'llash esa so'zlovchining ilmiga, yoshiga, madaniyatiga va yana bir qancha omillarga bog'liq bo'lishi mumkin. Bu kabi holatlar tilshunoslikning sotsiologiyaviy sohasida o'rganiladi.

Biz muloqotga kirishganimizda so'zlar ketma-ketligi o'z-o'zidan oqib keladi. Har bir til egasi o'z tilida shunday holatni sezadi, ammo o'zga tilda muloqot bo'lsa, bir qancha qiyinroq holat yuzaga keladi. Ana shunday holatlar tildagi omonimlar, sinonimlar, giponimlar va yana bir qancha so'zlarga borib taqaladi. Bulardan sinonim so'zlar o'zining xilma-xilligi va ayni davrda biroz muammoli savollari bilan ajralib turadi.

Leksik sinonimlar bilan bog'liq muamolar ikki xil ko'rinishda bo'ladi:

1. Chet tilidan o'zlashgan so'z va uning mavjud muqobili bilan bog'liq;
2. Sinonimik qatordagi darajaviy o'sish yoki kamayish bilan bog'liq.

Leksik sinonimlarning shakl jihatdan farqlanishi, mazmunan bir xil bo'lishi haqidagi tasavvurlar ancha eskirgan tasavvurlar hisoblanib, hozirgi kunda ma'nolari bir-biriga o'xshash so'zlarni sinonim so'zlar deb qarash to'g'ridir.

Leksik sinonimlarni o'rganish qadimgi yunon tilshunosligining falsafiy davridan boshlanadi. O'zbek fanida sinonimiya hodisasiga bag'ishlangan tadqiqotlar, asosan XX asrning 60-yillariga to'g'ri kelgan. XX asr ikkinchi yarmidan o'zbek tilshunosligida so'zlar (sintaktik konstruksiyalar)dagi sinonimiyaga munosabat taraqqiy etib, bu boradagi izlanishlar XXI asr o'zbek tilshunosligida ham zinhor susaymaganligi qayd qilingan [2. 9-b].

O'TIL ning ikki nashrida sinonimlarga berilgan izohlarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo'lingan:

- 1) izohi va misollari aynan bo'lgan sinonimlar;
- 2) izohi butunlay yangi, misollari aynan;
- 3) izoh qisman yangi, misollar aynan;
- 4) izoh qisman yangi, misollar qisman o'zgargan;
- 5) izohlar aynan, misollar yangi;
- 6) izohlar ham, misollar ham yangi;
- 7) oldingisida yo'q, yangisida bor;
- 8) sinonimiga ishora qilish asosida ayn. deb izohlash (oldingisida va keyingisida)[2. 10-b]. Bu tadqiqot leksik sinonimlarning leksikografik tahlili yuzasidan juda muhim va samarali yutuq hisoblanadi.

Leksik sinonimlarning lug'atlarda aks etishi muammosi hali to'lig'icha hal qilingani yo'q. Bunga asosiy sabab, sinonim so'zlarning izohli lug'ati hali ham yangilanmaganligida. A.Xojiyevning "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" 1974-yilda nashr etilgan bo'lishiga qaramay, biz undan asos sifatida foydalanamiz. Vaholanki, ushbu lug'atda ham ayrim kamchiliklar mavjud. Shu sababdan O'TIL da leksik sinonimlarning ifodalanishida biroz mujmallik kelib chiqadi. Chunki asosiy adabiyot sifatida yuqoridagi lug'at qabul qilingan. Quyida ba'zi misollar tahlil qilinadi.

AGRESSIYA, TAJOVUZKORLIK, TAJOVUZ, BOSQINCHILIK. O'zga davlat yerlarini bosib olish, uni iqtisodiy va siyosiy jihatdan bo'ysundirish maqsadidagi harakat. Agressiya termin sifatida ham, yozma nutqda ham keng qo'llanadi. Qolgan so'zlarning ma'no nozikligidagi farqi ularning o'zagidan sezilib turadi. Bu ma'noda oddiy so'zlashuv bosqinchilik so'zi boshqalariga nisbatan keng qo'llanadi [9. 12-b]. Bu sinonimik qatorda tajovuz so'zi ortiqcha hisoblanadi. Va bu yerda agressiya termini bosh o'rinda, keng qo'llanuvchi leksema sifatida keltirilgan. Hozirgi kunda bu termin nafaol terminlar sirasiga kiradi. Sinonimik qatorda so'zlar bir – biri bilan ma'no jihatdan aynan bo'lishi kerak ekan, tajovuzkorlik so'zining yonida yana tajovuz so'ziga ehtiyoj sezilmaydi. Tajovuzkorlik va tajovuz so'zlarini bitta gap tarkibida almashtirib qo'llay olmas ekanmiz, ularni sinonim deb qarash ham noto'g'ri. O'TIL da esa agressiya bosmachilik so'ziga sinonim sifatida ham berilmaydi.

BOSMACHILIK 1 Zo‘ravonlik va bosqinchilikka tayanuvchi harakat; bosqinchilik, o‘g‘rilik, banditlik [9].

BECHORA, SHO‘RLIK, BOYOQISH, O‘KSIZ, NOTAVON, OJIZ, AFTODA. Achinish, taassuf uyg‘oyuvchi holatli, nochor holatli. Sho‘rlik so‘zida belgi darajasi kuchliroq. Boyoqish ko‘proq oddiy so‘zlashuvga xos. Ojiz, notavon so‘zlarida ilojisizlik ottenkasi kuchliroq. O‘ksiz kam qo‘llanadi. Aftoda eskirgan [9. 60-b]. Sinonimik qator izohlanayotganda bechora va notavon so‘zlariga izoh berilmagan. Aftoda so‘zi esa eskirgan so‘z hisoblanmaydi va bu so‘z hozir Xorazm shevasida aynan saqlanib qolgan. O‘ksiz so‘zi “Devoni lug‘ati-t turk” asarida quyidagicha keltiriladi: Öksüz- yetim, nima qilarini bilmovchi, o‘ksiz. Hozirgi kunda bu so‘zning o‘ksik varianti saqlanib qolga va ko‘ngli o‘ksik iborasi tarkibida ko‘proq qo‘llanadi.

Bu kabi misollar lug‘atda ko‘plab uchraydi. Lug‘atda ba‘zi sinonimik qatorlari izohi to‘liq keltirilgan bo‘lsa, ba‘zilari chala, ba‘zilari misol bilan cheklangan. Bu holat ham to‘g‘ri qabul qilinishi kerak. Chunki o‘sha davr til siyosati bu kabi holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Ko‘plab ruscha so‘zlar keng iste‘moldagi so‘zlar sifatida izohlangan. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganidan so‘ng, sekin-asta iziga tushgan, o‘zbekcha so‘zlarni qo‘llash, ko‘plab ruscha yoki chet so‘zlarining iste‘molda kam, nafaol bo‘lib qolishiga asos bo‘ldi. Hozirgi kunda ham biz chet tillaridan so‘zlarni qabul qilmoqdamiz va keng qo‘llayapmiz, ammo bu so‘zlarning muqobili yo‘qligi, bo‘lsa ham shu predmetning ma‘nosini to‘liq ochib bermagani sababli o‘z holicha qabul qilish holatlari bo‘lyapti. Ammo yuqoridagi misolda agressiya so‘zining o‘rnida bizda aynan vazriant borligi hisobiga hozirgi kunda bu so‘zning faolligi ancha susaygan. A. Xojiyevning bu lug‘ati o‘zbek lug‘atchiligining yutuqlaridan hissoblanadi. Zamon esa bu lug‘atning yangilanishi talab qilmoqda.

O‘TIL yangi nashri haqida yuqorida biroz fikr yuritgan edik. Lug‘atning yutuqlari va yangiliklari behisob, ammo lug‘atning kirish qismida ta‘kidlanganidek, biroz kamchiliklar va munozarali holatlar yuzaga keladigan holatlar ham mavjud. Biror bir so‘zning aynan ma‘nosini bilish istagi paydo bo‘gan til egasi izohli lug‘atga murojaat qiladi.

YURAK, QALB, DIL, KO‘NGIL, SIYNA, KO‘KRAK. Kishining his-sezgisi, kayfiyati, ruhi, kechinmalarining simvollik markazi. Qalb kitobiy. Siyna poetik stilga xos. Siyna, ko‘krak shu ma‘noda juda kam qo‘llanadi [9. 235-b]. Qisman izohlangan ushbu sinonimik qatorda biroz g‘alizlikka duch kelamiz. Siyna va ko‘krak so‘zlari insonining ruhiy kechinmalarini ifodalash xususiyati jihatidan juda kam ko‘rsatkichga ega. Bu sinonimik qatordan ularning chiqib ketgani maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘TIL da yurak so‘ziga quyidagicha ta‘rif berilgan(misollarisiz):

YURAK 1 anat. Odam va hayvonlar ko‘krak qafasi ichida joylashgan, ularning qon aylanish sistemasidagi muskul qopchiqqa o‘xshash markaziy a‘zo. **2** ko‘chma Kishining his-sezgisi, ruhi, kechinmalarining ramziy markazi, ular saqlanadigan joy; qalb, dil. **3** Qo‘rqmaslik, jasorat va sh.k. ramzi [10]. Biz uchun 2-ma‘nosi muhim. Demak, his-tuyg‘uni ifodalay oladi, ammo sinonimlari qatorida ko‘ngil so‘zini uchratmaymiz. Vaholanki, sinonimlar lug‘atida bu so‘z ham bor. Endi dil so‘zini izlaymiz.

DIL [f. – yurak; qalb, ko‘ngil] **1** ayn. **Yurak. 2** ko‘chma Kishining ichki ruhiy dunyosi, ichki his-tuyg‘ularining markazi, ramzi; ko‘ngil, qalb.

Qalb so‘zining O‘TILda izohlanishini, keyin ko‘ngil so‘zini ko‘rib chiqamiz:

QALB I

[a.]– yurak, dil; o‘rtalik, markaz; lashkarning o‘rtasi] **1** Yurak. **2** ko‘chma Kishining ruhiy yoki ma‘naviy dunyosi, ichki his-tuyg‘ulari markazi ramzi; yurak, dil, ko‘ngil.

KO‘NGIL

(asosan z-sh. birl. – **ko‘ngli**) **1** Kishining his-tuyg‘u va kechinmalari manbai; yurak, qalb, dil. **2** Fe‘l-atvor, xarakter, xulq [10].

Ushbu sinonimik qatorning O‘TIL da izohlanishida keying uchta so‘zda bir xillik bor. Yurak so‘zida ko‘ngil so‘zining tushib qolishi aslida to‘g‘ri emas.

Lekik sinonimlar O‘TIL da aynan, qarang, dial., esk., tar., kabi qisqartmalar bilan beriladi. Lekin ularning hammasi ham bu kabi ifodalanishga mos tushavermaydi.

BOOBRO‘

[bo.. + obro‘] ayn. **obro‘li**.

BOODOB

[bo.. + odob] ayn. **Odobli** [10].

Bu kabi so‘zlarda ayn. Belgisining qo‘llanishi to‘g‘ri. Bu so‘zlarning aynanligini bildirayotgan belgi bu ikkala so‘zning ham o‘zagi, asosi bitta ekanligida, ularni sinonim holatiga keltirish vazifasini affikslar bajarmoqda.

BO‘SAG‘A

1 ayn. **ostona**.

OSTONA

[f. – kiraverish, bo‘zag‘a; arafa; shoh saroyi; daxma] **1** Eshik, darvoza chorcho‘pining ostki ko‘ndalang yog‘ochi; binoga, hovliga kiraverishdagi erga ko‘ndalang yotqizilgan yog‘och, taxta, xarsang va sh.k.; bo‘zag‘a [10].

Bu so‘zlar aynan bir xildek ko‘ringani bilan sinonimlardagi darajalanish qonuniyati asosida tahlil qilinsa, farqlari ko‘zga tashlanadi. Bo‘zag‘a so‘zi Xorazm shevasida Uyning ichkari qismi, eshikdan kirgan joy, ammo uyga hali to‘liq kirmagan qismi. Ostona esa O‘TIL da izohlangani kabi. Ammo ikkalasini almashtirib qo‘llash holatlari uchramaydi.

KABUTAR

[f. kaptar] kt. ayn. **Kaptar** [10].

Leksik dubletlarni keltirishda ham ayn, qisqartmasidan foydalanilmoqda. Aynan belgisi dubletlik hodisasi uchun ayni mos. Chunki kabutar va kaptar so‘zlari aynan bitta so‘z hisoblanadi.

VAZIR

[a. – vazir, ministr]

1 tar. O‘rta asrlarda Yaqin va O‘rta Sharq davlatlarida, jumladan, O‘rta Osiyo xonliklarida hukumat idorasi yoki kengashi (devoni) boshlig‘i. **Vaziri a‘zam** Ulug‘ vazir, vazirlar boshlig‘i. O‘rta asrlarda hukumatning oliy idoralarini boshqargan yuqori mansabdagi shaxs – hozirgi bosh vazir.

2 Mamlakatda muayyan tarmoq faoliyatini boshqaruvchi shaxs. **3** ko‘chma Oilada, jamoada boshliqdan keyingi mavqeda turuvchi shaxs [10].

MINISTR

[fr. ministre < lot. minister – xizmatchi, xodim, yordamchi] tar. ayn. **Vazir** [10].

Vazir va ministr so‘zlarining aynanligi shundaki, shaxsni bildiradi. Lekin ministr so‘zini tarixiy so‘zga chiqarish to‘g‘ri emas. Chunki bu so‘z jahon tillarida iste‘moldagi so‘z hisoblanadi va bu so‘z hozirda ham oddiy so‘zlashuv uslubida faol qo‘llanadi.

Sinonimlar qatoridagi leksemalar ayni qatordagi boshqa leksemalar bilan leksik ma‘nosining mavjud umumiy semasiga ko‘ra aynan bir xil kelsa ham, qolgan a‘zolari ba‘zi belgi-xususiyatlari bilan o‘zaro farqlanadi. Sinonimik qatordagi ana shu farqlilik graduonimik hodisa uchun zamin hozirlaydi. Bu esa sinonimiyaning ichki tomoni, xususan, bir-biriga o‘tishlarida lug‘aviy darajalanish hodisasi uchun muhim vazifa bajaradi [6. 37-b].

Leksikaning til sistemasini sathlaridan biri sifatida tizimli tashkil qilinishida o‘ziga xoslik mavjud bo‘ladi. Masala avvalo, bu kabi baynalmilal leksik birliklarning leksik-semantik strukturasidagi xususiyatlari va nutqda (kommunikativ aktda) amal qilishining o‘ziga xosligi ularning o‘zbekcha sinonimik ekvivalentlari (jumladan, arabcha va forschaga) bilan qiyoslanishi yetarli darajada o‘rganilmaganligi bilan bog‘liqligida ko‘rinadi [1. 173-b].

XULOSA. Leksik sinonimlarning leksikografik talqini haqida bir qancha tadqiqotlarda fikr yuritilgan bo‘lsa-da, yangi O‘TIL da bu muammolar deyarli hal qilinmagan. Sinonimik qatorlardagi so‘zlarning tushib qolishi, lekin sinonimlarning ba‘zilar izohi to‘liq berilmayotgani va ularni aynanlik maqomi ostida berilishi kabi holatlar ustida yan bir o‘ylab ko‘radigan vaqt keldi. Sinonimik qatordagi har bir leksema alohida semaga ega va ular lug‘atda o‘z izohiga ega bo‘lishi kerak. “O‘zbek tili sinonimlari izohli lug‘ati” ning yangilanishini davr talab qilyapti. Chunki tilimiz 1974-yildan turli neologizmlar bilan boyidi.

Mavjud “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”da har bir sinonimik qator leksemalari tabiatidan kelib chiqilgan holda ulardagi ijobiy yoki salbiy baho yoxud munosabat semasi,

leksemaning qoʻllanish davrini koʻrsatuvchi semalar, leksemaning qoʻllanilish doirasini koʻrsatuvchi semalar, qaysi uslubga xoslik kabilar keltirilgan misol izohida toʻla qamrab olinmaganligi koʻzga tashlanadi [1. 180-b]. Lugʻatning yaratilganiga qirq olti yil boʻlganligi sababli lugʻatda berilgan soʻzlarning maʼlum qismi oʻsha davrda endigina oʻzbek tiliga kirib kelayotgan, keng isteʼmolda boʻlmagan soʻz va terminlarni, muayyan qismi esa hozirda eskirgan soʻzlarni tashkil etadi.

“Oʻzbek tilining izohli lugʻati” oʻzbek tilining eng buyuk kitoblaridandir, shuning uchun unga yanada sayqal bersak mukammalikka erishgan boʻlar edik.

Иқтибослар/Сноски/References

1. Данияров Б. Ўзбек тили лексик синонимларининг лисоний ва нутқий муносабати, лексикографик талқини: Филол. фанлари доктори (DSc) дисс. Самарқанд, 2020 – 227 б. (Daniyarov B. Oʻzbek tili leksik sinonimlarining lisoniy va nutqiy munosabati, leksikografik talqini: Filol. fanlari doktori (DSc) diss. Samarqand, 2020 – 227 b.)
2. Эшмўминов А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлари базаси: филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) дисс. Автореф. Термиз, 2019 – 20 б. (Eshmoʻminov A. Oʻzbek tili milliy korpusining sinonim soʻzlari bazasi: filol. fanlari boʻyicha falsafa doktori (phd) diss. Avtoref. Termiz, 2019 – 20 b.)
3. Khamroeva Sh.M., Mengliev B. R. The authorship lexicography and authorship corpus // Материалы международной научной конференции межнаучная интеграция: лингводидактический, лингвокультурологический и психолингвистический аспекты 19-20 декабря 2019 год. Sumqayit – 2019. – С. 105-107. (Khamroeva Sh.M., Mengliev B. R. The authorship lexicography and authorship corpus // Materialy mejdunarodnoy nauchnoy konferensii mejnauchnaya integratsiya: lingvodidakticheskiy, lingvokulturologicheskiy i psixolingvisticheskiy aspekty 19-20 dekabrya 2019 god. Sumqayit – 2019. – S. 105-107)
4. Mengliev B., Karimov R. Theoretical fundamentals of uzbek-english parallel corpus // JOURNAL OF CRITICAL REVIEWS ISSN- 2394-5125 Vol. 7, issue 17, 2020.
5. Musulmonova Kamola Khusniddin qizi. The concept of the linguistic exam and its meaning . ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal ISSN: 2249-7137 ISSN: 2249-7137 Vol. 10 Issue 11, November 2020
6. Раҳмонов Ғ. Ўзбек тилида луғавий синонимия ва градуонимиянинг ўзаро муносабати: филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. Фарғона, 2018- 147 б. (Rahmonov Gʻ. Oʻzbek tilida lugʻaviy sinonimiya va graduonimiyaning oʻzaro munosabati: filol. fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) diss. Fargʻona, 2018- 147 b.)
7. Turayeva Dildora Anvarovna . Linguistic expertise as a branch of legal linguistics. ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal ISSN: 2249-7137 Vol. 10, Issue 12, December 2020
8. Shakhnoza Gulyamova, Bakhtiyor Mengliev. Lexical-semantic classification of euphemisms of the feminine gender in the Uzbek language // Academia Open. Vol 1. No 1. (2019): June Articles.
9. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. Тошкент. “Ўқитувчи”. 1974. (Hojiev A. Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati. Toshkent. “Oʻqituvchi”. 1974.)
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1,2,3,4,5-том. Тошкент .«Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. 2020.(Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 1,2,3,4,5-tom. Toshkent .«Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. 2020.)



ISSN 2181-9297

Doi Journal 10.26739/2181-9297

СЎЗ САНЪАТИ
ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ
4 ЖИЛД, 1 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ
ИСКУССТВО СЛОВА
ТОМ 4, НОМЕР 1

INTERNATIONAL JOURNAL
OF WORD ART
VOLUME 4, ISSUE 1

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000